



# Vaziyat

O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish asosiy vazifamizdir!

2024-yil  
31-oktabr  
№ 44 (985)



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

## MUSHTARAK MAQSADLAR SARI



FVV Markaziy apparati binosida Favqulodda vaziyatlar vazirining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i polkovnik S.Zuparov hamda vazirlik mutaxassislari bilan Janubiy Koreya yong'in xavfsizligi instituti mutaxassislari bilan iborat delegatsiya o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tashrif davomida mehmonlar Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Yong'in va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarining oldini olish, shuningdek, oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishdi.



Ta'kidlash joizki, 2020-yilda FVV Favqulodda vaziyatlar muammolari va yong'in xavfsizligi ilmiy-tadqiqot instituti hamda Janubiy Koreya yong'in xavfsizligi instituti o'rtasida ikki hamkor tashkilotning mushtarak maqsadlarini birgalikda amalga oshirish belgilangan memorandum imzolangan. Memorandum doirasida qo'shma loyihalar, konferensiya, simpoziumlar, ko'rgazmalar tashkil qilishga, ilmiy xodimlar almashinuvini amalga oshirishga kelishib olingan.

Muloqot davomida S.Zuparov mamlakatimizda so'nggi yillarda ochiq tashqi siyosatning faollashuvi xorijiy mamlakatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlanishida muhim poydevor bo'lib xizmat qilayotganini ta'kidladi. Mamlakatimiz xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida ta'lim, sog'liqni saqlash,

fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda xavfsizlikni ta'minlash sohasida ulkan marralarni egallayotganini qayd etdi.

Shuningdek, Janubiy Koreya eksportining katta qismini elektronika, avtomobillar, yuk mashinalari, yuqori texnologiyalar kabi murakkab tarmoqlar tashkil etayotgani, innovatsiya sohasiga dunyoda eng katta kuch sarflayotgan mamlakat ekanligi ta'kidlandi. Favqulodda vaziyatlar monitoringini yuritish, bashoratlash va zarur profilaktika ishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari izchillik bilan amalga oshirilayotgani, xavfli kimyoviy moddalarni aniqlash, ular bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda zararsizlantirish hamda kimyoviy xavfsizlik bo'yicha amalga oshiriyotgan ishlar xususida ham fikr yuritildi.



Tabiiy ofatlarning oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish, sanoat xavfsizligini nazorat qilish va keng qamrovli avariya-qutqaruv operatsiyalari kabi sohalar-dagi hamkorlik masalalari ko'rib chiqildi. Amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha yangi takliflar ham ilgari surildi.

Anvar QOBILOV.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi va boshqa daxldor tashkilotlar hamkorligida "Yurtning kuchi – birlikda, qadri esa tinchlikdadir" shiori ostida "Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi" sport musobaqalari va ko'rik-tanlovlarning respublika bosqichi o'tkazildi.

## VAZIR KUBOGI TOPSHIRILDI



Musobaqaning ochilish marosimida so'z olgan FVV boshqarma boshlig'i, podpolkovnik Jahongir Hasanov, Samarqand viloyati FVB boshlig'i birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i, polkovnik G'anijon Alaviddinov va O'zbekiston

Qizgin va murosasiz kechgan musobaqa yakuniga ko'ra, umumjamoa hisobida 1-o'rin Samarqand viloyati yoshlariga 2-o'rin Namangan viloyati vakillariga va 3-o'rin qashqadaryolik yoshlarga nasib qildi.



Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Samarqand viloyati kengashi raisi Dilfuza Azizovalar musobaqada ishtirok etayotgan jamoalarga muvaffaqiyatlar tiladilar.

O'taliqqa olingan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishiga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan musobaqada ishtirokchilar sportning bir nechta turlari bo'yicha iqtidor va mahoratlarini namoyish qildilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan 14 ta jamoa "Men qutqaruvchiman" estafetasi, sportning shaxmat, voleybol, arqon tortish turlari hamda "Zakovat" intellektual o'yini shartlari bo'yicha o'zaro bellashdilar.

G'oliblar Favqulodda vaziyatlar vaziri o'rinbosari, polkovnik X.Alibayev, Samarqand viloyati hokimi o'rinbosari Husan Tuxtayev, viloyat FVB boshlig'i podpolkovnik Nurali Kadirov tomonidan kubok, medal, tashakkurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Ilhom BOQIYEV,  
Samarqand viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i.





## GALDAGI SAYYOR QABUL

Joylarda o'tkazib kelinayotgan ommaviy sayyor qabullarning navbatdagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iroq tumanida tashkil etildi.

Qabulda O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi hamda Mudofaa, Favqulodda vaziyatlar, Ichki ishlar vazirliklari, Milliy gvardiya qo'mondonligi rahbariyati, qator mutasaddi tashkilotlar vakillari tomonidan Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari, xodimlari va ularning oila a'zolari tinglandi.

Ishga joylashish, imtiyozli ipoteka krediti ajratish, xizmat joyini ko'chirish, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va boshqa masalalarda 32 ta murojaatdan 6 tasi qanoatlantirildi, 16 tasi yuzasidan

huquqiy tushuntirishlar berildi, 10 tasining ijrosi nazoratga olindi.

Shuningdek, tashrif buyurganlar bilan ochiq muloqot ham o'tkazilib, harbiylar va ularning oila a'zolariga yaratilgan sharoitlar, imkoniyat va imtiyozlar haqida hamda bugungi sayyor qabulning maqsadi va ahamiyati xususida atroflicha ma'lumotlar berildi.

So'ngra harbiy qismlarning birida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati, bunda energiya tejamkorligini ta'minlash aholi va faoliyatga doir boshqa masalalar o'rganildi.

**Ulug'bek DAUBAYEV,**  
Nukus harbiy prokurorining o'rinbosari, adliya mayori.

## MUAMMOLARGA YECHIM

Urganch harbiy prokuraturasi tomonidan yoshlar bilan "Harbiy prokuror va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi.

Unda yoshlarning qiziqishlari, muammolari va kelgusi rejalari o'rganilib, ularni kasbga yo'naltirish, o'z orzu-maqсадlarini ro'yobga chiqarishlari yo'lida har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy chora-tadbirlar belgilandi.

Shuningdek, Tuproqqal'a tumanida ommaviy sayyor qabul tashkil etildi.

Turli masalalarga oid murojaatlarning ko'pchiligi joyida hal etildi. Yechimi vaqt talab qiladigan murojaatlar yuzasidan mutasaddi tashkilotlar mas'ullariga tegishli ko'rsatmalar berilib, ijrosi nazoratga olindi.

**Aziz ALIMQULOV,**  
Urganch harbiy prokurorining katta yordamchisi, adliya kapitani.

## HUQUQIY SABOQ

Qashqadaryo viloyati FVB hamda Qarshi harbiy prokuraturasi mas'ullari ishtirokida shaxsiy tarkib o'rtasida tartib-intizom va huquqbuzarliklar, jinoyat va korrupsion holatlarning oldini olishga qaratilgan yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishda nutq so'zlagan Qarshi harbiy prokurori o'rinbosari adliya mayori O.Baxronov harbiy intizomni mustahkamlash, individual tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda xizmat va shaxsiy avtomashinasini boshqarish, korrupsion holatlari va shu bilan birga diniy oqimlarga aralashib qolmaslik haqida to'xtalib o'tdi.

Yig'ilish so'ngida yuqoridagi sanab o'tilgan holatlarning oldini olish va yo'l qo'ymaslik yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilandi.

**O'.HAKIMOV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.



## MUSOBAQA



Samarqand viloyati FVB tomonidan otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va ularni qutqaruvchilik kasbiga qiziqtirish maqsadida "Yurtning kuchi – birlikda, qadri esa tinchlikdadir"

shiori ostida "Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi" sport musobaqalari va ko'rik-tanlovlarning viloyat bosqichi o'tkazildi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, 3-o'rinni Narpay tumani "Haqiqat" MFY yoshlari, 2-o'rinni Ishtixon tumani "Q.Qarshiyev" MFY yoshlari egallagan bo'lsa, 1-o'rin Bulung'ur tumani "Kaptarxona" MFY yoshlariga nasib etdi.

G'olib va sovrindorlar diplom, medal, kubok va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**Samarqand viloyati FVB axborot xizmati.**

## KO'RSATMALAR BERILDI

Termiz harbiy prokuraturasi tomonidan nazorat hududidagi harbiy qism va muassasalarda o'rganishlar davom ettirildi.

Jarayonda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik aholi, bunda elektr va tabiiy gaz tarmoqlarining mavsumga shayligi holati, energotejamkorlikni ta'minlash ishlari joyida o'rganildi.

Shuningdek, hududlarda amalga oshirilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlariga e'tibor qaratildi. O'rganishlar

natijalari mas'ullar ishtirokidagi ochiq muloqot davomida muhokama qilinib, tegishli tavsiya va ko'rsatmalar berib o'tildi.

**A'zam ALMARDANOV,**  
Termiz harbiy prokurorining o'rinbosari, adliya podpolkovniki.

## KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ

Namangan viloyati FVB va uning tarkibiy tuzilmalari xodimlari ishtirokida "Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish" mavzusida yig'ilish bo'lib o'tdi.



Unda viloyat hokimligi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi boshlig'i Donyor Ermatov tomonidan korrupsiya,

tamagirlikning oldini olish hamda unga qarshi kurashish, diniy ekstremistik oqimlar va yot g'oyalar ta'siridan saqlanish, axborot xavfsizligiga rioya etish, tavakkalchilikka asoslangan onlayn qimor o'yinlarini o'ynamaslik, g'yohvand va psixotrop moddalar muomalasiga qarshi kurashish, yo'l harakati qoidalariga va harbiy va mehnat intizomiga rioya etish hamda ID pasport orqali chet davlatlarga chiqish-kirish "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunining mazmun-mohiyati va ahamiyati kabi masalalarda profilaktik tadbir o'tkazildi.

**Abdurahmon HAMIDOV,**  
Namangan viloyati FVB SHXB boshlig'i, podpolkovnik.

## YOSHLAR BILAN...

Andijon viloyati FVB mas'ullari tashabbusi bilan Milliy Gvardiya boshqarmasi harbiy xizmatchilari, tuman hokimligi va 8-umumta'lim maktabi rahbariyati hamkorligida otaliqqa olingan yoshlar uchun "Ochiq eshiklar kuni" tashkil etildi.

Ushbu tadbir davomida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishining oldini olish borasida muhim fikrlar bayon etildi.

Shuningdek, 8-umumta'lim maktabi o'quvchi va o'qituvchilari ishtirokida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zilzila, yong'in va boshqa turli favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish yuzasidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Milliy Gvardiya harbiy xizmatchilari hamda viloyat FVB qutqaruv otryadi xodimlarining ko'rgazmali namoyishi yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

**A'zamjon MAMATOV,**  
Andijon shahar FV bo'limi inspektori, kapitan.

## VATANPARVARLIK

Norin tumani 2-sektor hududidagi tuman FV bo'limi tomonidan otaliqqa olingan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ular orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida sportning voleybol, shaxmat, arqon tortish va yong'in o'chirish estafetasi yo'nalishida musobaqalar o'tkazildi.

Ushbu musobaqaning tuman bosqichida "Toda" MFY yoshlari g'olib

bo'lib, viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdilar.

Namangan shahridagi Barkamol avlod o'yingohida bo'lib o'tgan viloyat bosqichida tuman yoshlari munosib ishtirok etib, sportning arqon tortish turida mutlaq g'olib bo'lishdi va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**O.SHARIPOV,**  
Norin tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

## MUNOSIBLARGA OVOZ BERILDI

"Qamchiq" maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasi shaxsiy tarkibi ishtirokida deputatlik saylovlari "Mening tanlovim – obod Vatanim" shiori ostida o'tkazildi.

Bunda har bir xodim deputatlikka nomzodlarining saylov oldi dasturlari

bilan chuqur tanishdilar va belgilangan uchastkalarga borib, o'zlari munosib deb hisoblagan nomzodlarga ovoz berdilar.

**A.QUDRATOV,**  
"Qamchiq" maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasi bo'lim boshlig'i, kichik serjant.



## MATBUOT BRIFINGI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Favqulodda vaziyatlar vazirligi axborot xizmati rahbari o'rinbosari, podpolkovnik Samandar Hikmatullayev tomonidan brifing o'tkazildi.**

Mazkur tadbir davomida aholi turar joylari va iqtisodiyot obyektlarida yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etish, elektr jihozlarining nosozligi, qo'lbola va nostandart isitish vositalari, is gazidan zaharlanish, gaz tarmog'iga qo'lbola shlanglar orqali ulanish, tez alanganuvchi vositalarning yong'in manbaiga yaqin qo'yilishi, yosh bolalarning ochiq olov chiqaruvchi vositalar bilan nazoratsiz qoldirilishi, yong'in bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish yuzasidan tavsiyalar va ma'lumotlar berildi.

Qayd etildiki, kuz-qish mavsumida sodir bo'layotgan favqulodda vaziyatlarning asosiy qismi energiya resurslaridan foydalanish qoidalarini buzilishi bilan bog'liq. Bularning ichida is gazidan zaharlanish, havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq vaziyatlar aчинаridir. Qish mavsumini betalafot o'tkazish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noxush vaziyatlarning oldini olish maqsadida tegishli idoralar bilan hamkorlikda 825 ta ishchi guruhlar tashkil etilgan va ularga taalluqli idoralardan 6 ming 985 nafar xodim jalb etilib, profilaktik-ogohlantiruv tadbirlari olib borilmoqda. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tuman va shaharlarda ta'mirlash guruhlari tashkil etilgan. Shuningdek, "Hududgazta'minot" AJ, uy-joy mulkdorlari shirkatlari hamda pech va dudburonlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan tashkilotlar mutaxassis ustalaridan iborat 703 ta

ta'mirlash-tiklash xizmatlari ham tashkil etilgan.

Yong'in va boshqa tusdagi favqulodda vaziyatlarni yuzaga keltirgan omillar, ularning sabablari va ayanchli oqibatlari tahlil qilinib, mutasaddi idoralarga bu kabi ofatlarning oldini olish, aholi va hududlarni yong'in va boshqa tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish borasida amalga oshiriladigan vazifalar yuzasidan zarur tavsiya hamda ko'rsatmalar berildi.

Darhaqiqat, bugungi kungacha qadar yong'in-qutqaruv qismlarining shaxsiy tarkibi tomonidan mahalla faollari bilan birgalikda fuqarolar bilan tushuntirish ishlari olib borilgan, fuqarolarga yong'inga qarshi yo'l-yo'riq berilgan. Yong'in xavfsizligi qoidalarini talablarini targ'ib qilish va fuqarolarning bilim-konikmalarini oshirish maqsadida bir qator uchrashuvlar o'tkazilgan.

Anvar QOBILOV.

## TAVSIYALAR BERILDI

**Qarshi shahridagi Harbiy aviatsiya institutida kursant va harbiy xizmatchilar ishtirokida "Is gazidan zaharlanish holatlarining oldini olish" mavzusida seminar o'tkazildi.**

Jarayonda, viloyat FVB mas'ullari tomonidan isitish mavsumida yoqilg'i mahsulotlaridan xavfsiz va oqilona foydalanish yuzasidan tegishli ma'lumotlar berildi. Bundan tashqari, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, mavsumni betalafot o'tkazish maqsadi-

da boshqarma xodimlari tomonidan barcha hududlarda keng qamrovli profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.

Tadbir doirasida soha xodimlari aholi xonadonlari, ijti-



moiy soha obyektlarida hamda tadbirkorlik subyektlarida aholiga is gazidan zaharlanish, havo-gaz aralashmasining chaqnashi, yong'inlar va boshqa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha tushunchalar berilib, xavfsizlik qoidalarini o'zida aks etgan eslatmalar tarqatildi.

R.ESHONQULOV,  
Qashqadaryo viloyati FVB bo'lim bosh inspektori, kapitan.

## TARG'IBOT

FVV Akademiyasi tomonidan Toshkent shahrining Yangiheyot, Sergeli, Yakkasaroy, shuningdek, Toshkent viloyatining Qibray, Toshkent, Zangiota tumanlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash ishlari ilmiy yondashuv asosida o'rganish yuzasidan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tadbirlar davomida tumanlar aholisining favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga tayyorgarligini o'rganish, yong'inlar, havo-gaz aralashmasining chaqnashi va is gazidan zaharlanish bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar, o'quv mashqlari o'tkazilmoqda.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlari, omborxonalar, shu

jumladan, gaz to'ldirish shoxobchalari va punktlari, avtomobillarga gaz to'ldirish va quyish shoxobchalarida texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish holatini ilmiy jihatdan o'rganish yo'nalishida tumanidagi xavfli ishlab chiqarish obyektlari ro'yxati, obyektlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va sodir bo'lganda oqibatlarini bartaraf etishga tayyorgarlik holati, obyekt mas'ul xodimlarining favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga tayyorgarlikdan o'tganlik holati, yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish va yana boshqa zarur talablarning ijrosi tekshiruvdan o'tkazilmoqda.

Baxshullo JAHONQULOV,  
FVV Akademiyasi axborot xizmati boshlig'i.

## O'QUV MASHQI

Qashqadaryo viloyati FVB va Shahrisabz shahar FV bo'limi hamkorligida Shahrisabz shahar "Sinabog'" mahallasi hududidagi ko'p qavatli uylarda shartli yong'inni bartaraf etish, insonlarni qutqarish va birinchi yordam ko'rsatish yuzasidan o'quv-amaliy mashg'uloti bo'lib o'tdi.

Mashg'ulot jarayonida, sodir bo'lgan yong'in joyida fuqarolarni qutqarish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, fuqarolarni evakuatsiya qilish va turli favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha bilimlari sinovdan o'tkazildi.

U.SHARIPOV,  
Shahrisabz shahar FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.

## BOLALARGA O'RGATAYLIK

**Qarshi shahridagi "Yulduzcha" MTT tarbiyalanuvchilari va tarbiyachilarining bir guruhi uchun viloyat FVBga ekskursiya tashkil etildi.**



Ularga qutqaruvchilar tomonidan yong'in-qutqaruv mashinalari va maxsus asbob-anjomlar tanishtirildi.

Bolalar bizning kelajagimiz. Biz ota-onalar shu farzandlarimiz baxti-saodati uchun butun umrimizni baxshida etamiz. Shunday ekan, oila kattalaridan bolalarning "tilsiz yov" bilan o'yinlariga yo'l qo'ymasliklarini so'rardik. Toki kelajagimiz bo'lgan bolalar xavfsizligi ta'minlansin.

Qashqadaryo viloyati FVB axborot xizmati.

## YO'RIQNOMA

Namangan viloyati FVB, Davlatobod tumani FV bolimi hamda daxldor tashkilotlar va killari xodimlar bilan profilaktik tadbirlar o'tkazish maqsadida ishchi guruh tuzilib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan yo'riqnoma o'tkazildi. "Xalqlar do'stligi", "Irvadon" MFYdagi ko'p qavatli turar-joylar va xonadonlarni yong'inga qarshi holati tekshirilib, uy egalari xonadonlarda gaz, elektr isitish moslamalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilish yuzasidan tushuntirishlar berilib, eslatma plakatlari o'rnatildi.

Shuningdek, tumandagi 29-DMTT binosini kuz-qish mav-



sumiga tayyorgarligi va isitish qozonlarining dudburonlar holati tekshirilib, ishchi-xodimlarga yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish yuzasidan yo'riqnomalar berildi.

Akmal MUSAYEV,  
Davlatobod tumani FV bo'limi DYON inspektori, katta serjant.

## EHTIYOT BO'LING!

**Urganch shahar FV bo'limi xodimlari tomonidan 2024 - 2025-yillar kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar davomida shahar hududidagi mavjud ijtimoiy soha obyektlari, tadbirkorlik subyektlari va asosan aholi yashash sektorlari to'liq ravishda qamrab olindi.**

Jumladan 2024-yilning oktabr oyida 216 ta korxonalar-

tashkilotlarda, 779 ta ko'p qavatli uylardagi 20811 ta xonadonlarda, 36 ta maktab, 33 ta MTTlarda, 33 ta shifoxonalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli favqulodda vaziyatlar, yong'inlar, is gazidan zaharlanish holatlarining oldini olish bo'yicha profilaktika ishlari olib borildi.

Azizbek QO'CHQAROV,  
Urganch shahar FV bo'limi P va NB inspektori, katta leytenant.

## SEMINAR-TRENING

**FVV Akademiyasi rahbar xodimlari ishtirokida navbatdagi seminar-trening o'tkazildi.**

Uni akademiya boshlig'i general-mayor Ravshan Xaydarov kirish so'zi bilan ochib, kursantlarning tanlagan kasblari naqadar mashaqqatli va mas'uliyatli ekanligi, bu kasbni mukammal egallashlari uchun ulardan chuqur bilim va ko'nikmalar talab etilishini alohida ta'kidlab o'tdi.

Seminar-trening davomida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi rahbariyati tomonidan zavodning texnologik jarayonlari aks ettirilgan foto stendlar, shu-

ningdek, neft va neft mahsulotlari omborlarining namunaviy ko'rinishi aks ettirilgan maket taqdimoti o'tkazildi. Mazkur stend va maketlar o'quv jarayonida foydalanish va amaliyotning nazariya bilan uyg'unligini yanada yaxshilash maqsadida akademiya taqdim etildi.

Zafar MIRZAAXMEDOV,  
FVV O'MvaTOYXTTE boshqarmasi katta inspektori, mayor.

Sayfiddin JUMAYEV,  
FVV Akademiyasi Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi kafedrasini boshlig'i t.f.d, podpolkovnik.



## HAMKORLIKDA

Chirchiq shahar Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazida Chirchiq shahardagi 2-sonli, Yuqorichirchiq tumanidagi 35-umumta'lim maktablari hamkorligida "Zilzilalar va tabiiy ofatlar xavfi yuqori bo'lgan hududlarda favqulodda vaziyatlarda bardoshlilikini ta'minlash, shaylikni oshirish va ularda harakatlanish bo'yicha milliy va mahalliy salohiyatlarni mustahkamlash" mavzuida seminar-trening o'tkazildi.



tomonidan mahorat darslari va asbob-anjomlar ko'rgazmasi tashkil etildi.

**Husniddin AGLAYEV,**  
Chirchiq shahar HFXO'M  
o'qituvchisi.

Fuqaro muhofazasi instituti o'qituvchilari A.Nurmatov, A.Tursunov, R. Karimov, M.Tinibekovlar tomonidan qilingan ma'ruzalar o'quvchi va o'qituvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Seminarining amaliy qismida Toshkent viloyati FVBga qarashli yong'in-qutqaruv otryadi qutqaruvchilari

## TALAB VA QOIDALAR

Bugungi kunda "Qamchiq" maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasi tomonidan "Qamchiq" dovonida qator profilaktik tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Tadbir davomida ishtirokchilarga yong'in va boshqa tUSDagi favqulodda vaziyatlar, ular yuzaga kelganda to'g'ri harakatlanish qoidalari tushuntirilib, elektr moslamalaridan yong'in hamda texnika xavfsizligi talablariga qat'iy rioya qilgan holda foydalanish borasidagi muhim talab-qoidalar yana bir karra eslatilmoqda.

Bu kabi tadbirlarni joylarda tashkil qilish, aholiga, davlat hamda jamoat tashkilotlari ishchi-xodimlariga o'zi

va yaqinlarini, xonadonlarini yong'in va boshqa tUSDagi favqulodda vaziyatlar bilan muhofaza qilish qoidalarini o'rgatish kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olishda asosiy omillardan hisoblanadi.

**F.DADOMATOV**  
"Qamchiq" MQYOQB FVPB KI  
(YONB)kichik serjant.



## SANAGA BAG'ISHLANDI

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 35 yilligi munosabati bilan uch avlod uchrashuvi o'tkazildi.

Tadbirida O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi Turon Fanlar Akademiyasi akademigi, shoir va jurnalist Zubaydulla Ibragimov ishtirok etdi. Notiq o'z so'zida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligi va bu borasida mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar, shuningdek, tilimizga bo'lgan e'tibor to'g'risida misollar asosida gapirib, o'z ijod na'munalaridan she'rlar o'qib berdi.



Tadbir savol-javoblar asosida qiziqarli va esda qolarli tarzda o'tdi.

**Otabek MAXAMMATOV,**  
FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi siki boshlig'i,  
mayor.

## SEMINAR-TRENING



Namangan viloyati FVBda loyihaviy maktablar o'qituvchilari va o'quvchilarining iqlim o'zgarishi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarga bardoshlilikini oshirishga qaratilgan seminar-trening o'tkazildi.

FVV Fuqaro muhofazasi institutining YUNISEF tashkiloti bilan hamkorlikdagi

"Zilzila va boshqa tabiiy ofatlar xavfi tahdidi yuqori bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlarining favqulodda vaziyatlarga bardoshlilikini ta'minlashga qaratilgan mahalliy va milliy salohiyatlarini mustahkamlash" loyihaviy dasturi doirasida o'tkazilgan ushbu treningda institut professor-o'qituvchilari, viloyat FVB mutaxassislari, loyiha bilan qamrab olingan umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar pedagoglari jamoalarining vakillari, shuningdek, ko'ngillilar ishtirok etdilar.

**G'ulomjon ISMOILOV,**  
Namangan viloyati FVB HFXO'M  
boshlig'i, podpolkovnik.

## O'RGANISHLAR

Namangan viloyati FVB, Chust tumani FV bo'limi shahsiy tarkibi va mas'ul tashkilotlar vakillari ishtirokida mavsum davrida aholini hamda ijtimoiy-iqtisodiy obektlarni yong'inga qarshi tadbirlarning qay darajada olib borilayotganligi yuzasidan o'rganish ishlari olib borilmoqda.

O'rganishlar davomida gaz, eketr asbob-anjomlaridan belgilangan qoida talablari asosida foydalanish, jarayonda aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tegishlilik bo'yicha mas'ul tashkilotlarga ko'rsatmalar berilib, ularni bartaraf etish choralarini ko'rilmoqda.



**Tursinali JURAYEV,**  
Chust tumani FV bo'limi boshlig'i,  
podpolkovnik.

## AMALIY MASHG'ULOT

Fuqaro muhofazasi institutining Favqulodda vaziyatlar Simulyatsiya markazida Yakkasaroy tumani 144-umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan "Turli xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish" mavzusida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari keng qo'llanilgan innovatsion-interaktiv xonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Mashg'ulotlar davomida FMI o'qituvchilari o'quvchi-yoshlarning favqulodda

vaziyatlarning oldini olish borasidagi turli savollariga atroflicha javob berdilar.

**Liliya GALIMOVA,**  
FMI katta o'qituvchisi.



## TAYYORGARLIK JARAYONI

Mirzo Ulug'bek tumani FV bo'limi tomonidan 63 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, 36 ta umumta'lim maktablarida, 9 ta oliy ta'lim muassasalarida, favqulodda vaziyatlar hamda yong'inlarning oldini olish yuzasidan davra suhbatlari va amaliy mashg'ulotlar tashkillashtirildi.

Unda 15 ta sog'liqni saqlash muassasalari, 70 ta mahalla fuqarolar yig'inlari hamda 150 dan ortiq ijtimoiy

ishlari olib borildi. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi tomonidan o'choqda olib boriladigan profilaktik chora-tadbirlarni o'tkazish va uni bartaraf etish harakatlari amalda sinovdan o'tkazildi.

Mashq yakunida amaliy harakatlar o'zaro muhokama etilib, mutasaddilarga zarur tavsiya hamda ko'rsatmalar berildi.

**A.AMIRXANOV,**  
Qorao'zak tumani FV bo'limi TB  
boshlig'i, katta leytenant.



soha va tadbirkorlik sub'ektlari rahbarlari, ishchi va xizmatchilari, shuningdek, tarbiyalanuvchi va o'quvchilarni zilzila vaqtida va zilziladan so'ng o'zini tutish qoidalari, kuchli zilzilalarga oldindan tayyorgarlik ko'rish hamda ulardan talafotlarsiz chiqish bo'yicha bilimlarini yanada oshirdilar.

**M.NOSIROV,**  
Mirzo Ulug'bek tumani FV bo'limi  
PvaNB inspektori, leytenant.



## ZAHARLANISHDAN SAQLANING

Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi ijtimoiy soha obyektlari va aholi yashash xonadonlarida mavsumni betalafot o'tkazish, mavsum davomida gaz hamda elektr ta'minotini uzluksiz yetkazib berishga tayyorgarlik hozirdan boshlab yuborildi. Tuman FV bo'limi tomonidan jami 62 545 ta aholi yashash xonadonlari, 115 ta ijtimoiy soha obyektlari tegishli tashkilotlar xodimlarini jalb qilgan holda mavsumga tayyorgarlik holati o'rganib chiqildi. O'tkazilgan o'rganish va uchrashuvlar davomida fuqarolarga tuman hududida sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar, yong'in va is gazidan zaharlanish bilan bog'liq nohush holatlar aytilib, ularning asosiy kelib chiqish sabablari, oilada yosh bolalarni qarovsiz qoldirmaslik, gaz va elektr jihozlaridan to'g'ri foydalanishlari to'g'risida tushuntirilib, mavzuga oid eslatmalar tarqatilib kelinmoqda.

**Davron JUMANIYOZOV,**  
Yangiariq tumani FV bo'limi boshlig'i,  
podpolkovnik.

## SAMARALI ISHLAR



Tahillarga ko'ra, 2024-yilning o'tgan 9 oyi davomida Shahrisabz tumani hududida 65 ta yong'in qayd etilgan bo'lib, oqibatda 6 nafar fuqaroning turli darajadagi tan jarohati olganligi qayd etilgan.

Bu kabi noxushliklarning oldini olish maqsadida soha vakillari tomonidan tumanning "Tanhoz" va "Avazmalik" mahallalari aholisiga elektr va gaz uskunalarini mavsum oldidan texnik ko'rikdan o'tkazish hamda yoqilg'i mahsulotlaridan oqilona foydalanish zarurligi tushuntirildi. Yangidan barpo etilayotgan ko'p qavatli bino-inshootlarda quruvchi va mutaxassislar o'rtasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'tkazilgan profilaktik targ'ibot tadbiri ham har tomonlama samarali bo'ldi. Shuningdek, soha vakillari tomonidan xonadonlar va ko'p qavatli uylarda yong'inga sababchi omillar aniqlanib, kamchiliklarni joyida bartaraf etish choralarini ko'rdi.

**Sirojiddin TOSHMUHAMMEDOV,**  
Shahrisabz tumani FV bo'limi katta inspektori.  
**Jasur QODIROV,**  
Shahrisabz shahar FV bo'limi inspektori.

## EHTIYOT BO'LING

Dehqonobod tumanida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va betalafot o'tkazish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari, ko'rgazmali mashg'ulotlar hamda profilaktik tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda.

Unda fuqarolarga tabiiy gaz, ko'mir, o'tin mahsulotlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, is gazi va chaqnashlardan ogoh bo'lish, yong'in bilan bog'liq baxtsiz hodisalardan saqlanish zarurligi tushuntirilmoqda.

**Bobur SHERALIYEV,**  
Dehqonobod tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, kapitan.

"Qamchiq" dovonidan o'tgan A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'li va "Angren-Pop" elektrlashtirilgan temir yo'li masofasida transport vositalarining uzluksiz va xavfsiz harakatini ta'minlash, shuningdek, aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish dolzarb vazifalardan sanaladi.

## NAZORATGA OLINGAN



Transport vositalarining qatnovi oshgani sari dovon orqali harakatlangan haydovchi va yo'lovchilarning xavf-xatarsiz harakatlanishini ta'minlash qutqaruvchilarimizga va dovonda faoliyat olib boruvchi FVDT xizmatlariga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Xizmatlar o'rtasidagi axborot almashinuvi katta ahamiyatga ega bo'lib, dispetcherlik xizmati tomonidan dovondagi holat nazoratga olingan.

Shu munosabat bilan "Qamchiq" dovoni hududidagi FVDT xizmatlarining navbatchi-dispetcherlik xizmati bilan aloqa va axborot almashinuvini mustahkamlash hamda yuzaga kelgan noxush holatlarning o'z vaqtida talafotlarsiz bartaraf etish maqsadida o'rganish ishlari olib borildi.

Bunda navbatchi-dispetcherlik xizmatlarining shtat asosida tashkil etilganligi, zamonaviy aloqa va xabar berish vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi, hamkorlikdagi xizmatlar bilan kunlik ma'lumot almashinuvi, xodimlarga yaratilgan shart-sharoitlarga e'tibor qaratildi.

**A. QUDRATOV,**  
"Qamchiq" MQYOQB navbatchi-dispetcherlik bo'limi boshlig'i, kichik serjant.

## MUHIM MASALA

Farg'ona viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchilari tomonidan viloyatning 19 ta shahar va tumanlaridagi maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, tashkilot-muassasalar hamda toifalangan obyektlarda rejali va shartnoma sosida o'qitish va maxsus sertifikatlar berish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.



Tadbirlar davomida yong'inga qarshi himoyani tashkil etish, yong'in o'chirgichlarning turlari va ulardan foydalanish tartibi, shuningdek, is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning oldini olish va inson hayotiga xavf soluvchi turli omillardan aholini muhofaza qilish hamda kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazishda yong'in xavfsizligi talablari va qoidalari bo'yicha batafsil tushunchalar berilmoqda.

**O.ATAJONOVA,**  
Farg'ona viloyati FVB HFXO'M katta o'qituvchisi.  
**I.MADUMAROV,**  
o'qituvchi.

## BIRINCHI YORDAM



Toshloq tumani FV bo'limi hamda hamkor tashkilotlar ishtirokida o'quv mashg'uloti o'tkazildi.

Mashg'ulotlardan ko'zlangan asosiy maqsad, favqulodda vaziyatlar yuz berganda maktab o'quvchilarining to'g'ri harakat qilishga doir bilim va ko'nikmalarini oshirish hisoblanadi. Shuningdek, yong'in sodir bo'lganida talafotlarsiz himoyalani mashqlari namoyish etilib, o'quvchilarni evakuatsiya qilish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish mashg'ulotlari amaliy tarzda o'tkazildi.

**E.MAMASAIIDOV,**  
Toshloq tumani FV bo'limi boshlig'i,  
kapitan.

## YO'LLANMA OLINDI

Toshkent shahar Olmazor tumani FV bo'limi tomonidan otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida sportning voleybol va shaxmat turi bo'yicha "Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi" musobaqalari bo'lib o'tdi.

"Yurtning kuchi – birlikda, qadri esa tinchlikdadir!" shiori ostida o'tkazilgan ushbu bellashuv yakuni bo'yicha 1-o'rinni "Gulsaroy" mahallasi, 2-o'rinni "Xazrati imom" mahallasi hamda 3-o'rinni "Qichqiriq" mahallasi yoshlari qo'lga kiritishdi.

G'olib va sovrindorlarga tuman FV bo'limi tomonidan faxriy yorliqlar, esdalik sovg'alar, medal hamda diplomlar topshirildi.

G'olib terma jamoa shahar bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

**T.KAMALXODJAYEV,**  
Olmazor tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari,  
podpolkovnik.  
**X.SUNNATILLAYEV,**  
bo'lim bo'linma inspektori, katta leytenant.

## "OCHIQ ESHIKLAR" KUNI



Namangan viloyati FVBda Namangan davlat universiteti va Namangan muhandislik-qurilish instituti talabalari uchun "Ochiq eshiklar" kuni tashkil etildi.

Dastlab, boshqarma Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchilari tomonidan tadbiming mazmun-mohiyati to'g'risida atroflicha tushuntirildi.

Shundan so'ng o'qituvchi va talabalar boshqarmada tashkil etilgan muzeyga sayohat qilib, eksponatlar bilan yaqindan tanishdilar.

Shuningdek, yong'in-qutqaruv avtomashinalari va undagi qutqaruv asbob-anjomlari yaqindan tanishtirilib, hamkorlikdagi tadbirlarda faol ishtirok etganliklari uchun institut o'qituvchilariga boshqarma boshlig'ining tashakkurnomalari topshirildi.

**Islomjon MELIBOYEV,**  
Namangan viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.  
**Abdug'ani XADJAYEV,**  
boshqarma HFXO'M katta o'qituvchisi.



## TIZIMLI ISHLAR

Tegishli xizmatlar bilan hamkorlikda aholi yashash xonadonlarida uy-uy yurib profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda. Favqulodda vaziyatlar yoki yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha tushunchalar berilmoqda. Yong'in xavfsizligi qoidalari talablarini targ'ib qiluvchi eslatma, yo'riqnomalar va plakatlar tarqatilmoqda. Tek-

shiruv va ko'riklar davomida aniqlangan yong'inga qarshi kamchiliklar bartaraf etilmoqda. Fuqarolarga elektr va gaz uskunalaridan foydalanishda ularning sozligiga, yong'in xavfsizligi qoidalari qat'iy amal qilishga e'tibor qaratilishi tushuntirilmoqda.

**S.TULYAGANOV,**  
Toshkent shahar FVB kichik inspektori, kichik serjant.

## PROFILAKTIKA

Olmazor tumani FV bo'limi tomonidan Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligi profilaktikasi otkazildi.

Unda bo'lim boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik N.Xatamov boshchiligidagi qutqaruvchilar, universitet rahbariyati, o'qituvchilar, ishchi-xizmatchilar hamda talabalar ishtirok etdilar.

Tadbirda kuz-qish mavsumini talafotlarsiz o'tkazish, talabalarni xavfsiz binolarda qabul qilish, yotoqxonarni yashash sharoitlarini yaxshilash, is gazidan zaharlanishning oldini olish, gaz-havo aralashmasi chaqnashi va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlar kelib chiqishiga yo'l qoymaslik bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

**N.XATAMOV,**  
Olmazor tumani FVbo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

## O'T O'CHIRGICHLAR

Yong'inlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, lekin har qanday yong'inning ham oldini olish mumkin. Yong'inga qarshi birinchi kurashish vositasi o't o'chirgichlar hisoblanadi. Ular barcha transport vositalarida o'rnatilishi kerak. O't o'chirgichlarning turli xil bo'lishini hamma ham bilmaydi. Bundan tashqari, hammada ham ulardan qanday foydalanish to'g'risida ma'lumot mavjud emas. Transportlarda quvvat og'irligi 2-5 kg. bo'lgan karbonat angidridli va kukunli o't o'chirgichlar qo'llaniladi. Yonayotgan odamni kar-

bonat angidridli o't o'chirgich bilan o'chirish qat'iy man etiladi. Ushbu turdagi o't o'chirgichlarning kamchiliklari orasida o't o'chirish vositalarining uchuvchanligi, qurilmaning o't o'chiruvchi vositani yetkazib beruvchi elementlarini ehtiyotsizlik bilan ishlashda qo'llarning muzlashi xavfi, shuningdek, gaz bug'larining inson tanasiga salbiy ta'siri mavjud.

**Mutal UMBETOV,**  
Bo'stonliq tumani Ixtisoslashgan ko'p tarmoqli boshqarmasi OYOXTTEB boshlig'i, podpolkovnik.

## XAVFSIZLIK YO'LIDA

Jizzax shahar hamda G'allaorol tumani hududlaridan o'tuvchi Uchtepa-Jizzax-G'allaorol 4R-38 avtomobil yo'lida xavfli ekologik jarayonlarni bartaraf etish bo'yicha hamkorlikda maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Mazkur hududda transport vositalarining xavfsiz harakatlanishi hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, bu borada viloyat FVDT xizmatlarining kuch va vositalarining tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish maqsadida viloyat FVB tuman FV bo'limi, tuman hokimligi, FVDT quyi tizimi organlari hamda Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish davlat xizmati bilan hamkorlikda ko'chki xavfini bartaraf etish ishlari olib borildi.



Amalga oshirilgan tadbirlarda jami 30 metr kubdan ziyod tosh massalari xavfsiz joyga ko'chirildi.

**Iftixor UMAROV,**  
Jizzax viloyati FVB axborot xizmati rahbari, kapitan.

## TUSHUNTIRILMOQDA

Yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida tashkil etilayotgan davra suhbatlari, ko'rgazmali chiqishlar davomida yong'inlarni keltirib chiqaruvchi holatlardan ehtiyot bo'lish, nosoz elektr moslamalaridan foydalanmaslikni targ'ib qiluvchi eslatmalar

tarqatilib, tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda. Yong'in-qutqaruv qismlari shaxsiy tarkibi tomonidan favqulodda vaziyat yoki yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish tartibi va qutqaruv ishlarini tashkil etish bo'yicha yong'in o'chirish amaliy-tak-

tik mashq va odamlar ommaviy yig'iladigan maskanlarda yong'in-qutqaruv texnikalari va vositalari namoyish etilmoqda.

**J.XAFIZOV,**  
Toshkent shahar FVB kichik inspektori, kichik serjant.

## HAMKORLIKDA

Uychi tumanida "O'ta xavfli yuqumli kuydirgi kasalligining kirib kelishi va tarqalishining oldini olish" mavzusida ko'rgazmali maxsus-taktik o'quv mashqi bo'lib o'tdi.



Unda "O'ta xavfli yuqumli kasalliklarni chetdan kirib kelishi, tabiiy o'choqlari mavjud hududlarda odamlar va hayvonlar orasida ushbu kasalliklar tarqalishining oldini olish, kasalliklar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat funksional va hududiy tizimlari boshqaruv organlari hamda kuch va vositalarining o'zaro hamkorlikdagi harakatlar" mavzusida daxldor tashkilotlarni jalb qilgan holda ko'rgazmali

maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Mashq doirasida tashkil etilgan seminarda tuman FV bo'limi, veterinariya va TTB xodimlari ishtirok etdilar. Seminarda kuydirgi kasalligi haqida mutaxassislar batafsil ma'lumot berdilar.

**Qahramon SATTAROV,**  
Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.  
**Azamat ERGASHEV,**  
Uychi tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, podpolkovnik.

## TUSHUNCHALAR BERILDI



Anjumanlar saroyi YOXTTEB inspektorlari tomonidan Yunusobod tumanidagi 12-umumta'lim maktabi binosida o'quvchilar bilan yong'inlarning oldini olish, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish hamda elektr jihozlarini nazoratsiz qoldirmaslik bo'yicha tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, tadbir davomida zilzila sodir bo'lganda harakatlanish tartibi hamda botulizm — ovqatdan zaharlanishning oldini olish bo'yicha ham tushunchalar berildi.

**Jamoliddin MAXAMATJONOV,**  
Anjumanlar saroyi YOXTTEB kichik inspektori, katta serjant.

## HARAKATLAR SINOVU

Yangiyahot tumanidagi umumta'lim maktablarida maktab rahbarlari, ishchi-xizmatchilar, o'quvchilarni zilzila vaqtida harakatlanishga o'rgatish ishlarini takomillashtirish, zilzila vaqtida to'g'ri harakatlanishga o'rgatish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari hamda bunday vaziyatlarda evakuatsiyani tashkil etish bo'yicha maxsus-taktik mashqi o'tkazildi.

Tuman milliy gvardiya xodimlari Toshkent shahar FVB Toshkent shahar Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi hamda tuman xalq ta'lim bo'limi bilan hamkorlikda o'tkazilgan mazkur mashq davomida maktab rahbarlari va o'quvchilarning zilzila vaqtidagi harakatlari amalda ko'rsatib berildi.

**Sa'dulla SAGDULLAEV,**  
Yangiyahot tumani FV bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari — tezkor bo'linma boshlig'i, mayor.

## DOVONDA...

"Qamchiq" Maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasi bo'lim boshlig'i leytenant R.Xolmatov hamda kichik serjant U.Karimovlar tomonidan, qutqaruv va yong'in-qutqaruv otryadi shaxsiy tarkibi bilan boshqarmaga yangi qabul qilingan yong'in va portlashga xavfli gazlarni aniqlovchi kimyoviy razvedka

asbobi (gazanalizator) va (B-tip) dagi kimyoviy himoya kostyumlaridan foydalanish bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

**A.QUDRATOV,**  
"Qamchiq" MQYOQB bo'lim boshlig'i, kichik serjant.

## MAVSUMGA SHAY

Xorazm viloyati Urganch shahar Obodonlashtirish boshqarmasi hududida shaharning "yig'ma komanda"si hamda shahar FVDT xizmatlarining saf ko'rigi o'tkazilib, shaxsiy tarkib va maxsus texnikalarning shayligi hamda maxsus asbob-anjomlari sozligi terkshirildi.

Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli favqulodda vaziyatlarning oldini olish, sodir bo'lganda oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etish yuzasidan

mas'ul xodimlar yo'riqnomadan o'tkazildi.

**B.BABADJANOV,**  
Urganch shahar FV bo'limi bo'linma boshlig'i, kapitan.





# JAMIYAT BARQARORLIGIGA SALBIY TA'SIR ETUVCHI TAHDIDLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH OMILLARI

Bugun jahonda tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib borayotgani har qadamda sezilmoqda. Ayrim davlatlarda yuz berayotgan noxush voqeahodisalarning guvohi bo'lib, har birimizning vujudimiz junbushga kelib, etimiz seskanib ketayotgani ham bor gap. Qaysi bir mamlakatda nimadandir norozi kayfiyatda olomon namoyishga chiqayotgan bo'lsa, boshqa birida esa fuqaro tongda ishga o'tlanayotib "Kechga uyimga sog'omon qaytib kelarmikanman?", degan tahlkada. Ayni bolalik gashtini surish o'rniga ertalab yaqinlaridan rozirizolik so'rab uydin chiqishayotgan farzandlarni, yashash umidida har bir daqiqasini jon hovuchlab o'tkazayotgan xalqlarni ko'rib turibmiz.

Globalashuv sharoitida jamiyat xavfsizligi hamda mamlakat barqarorligini ta'minlash hozirgi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi. Bunday dunyo miqyosida globalashuv jarayonining kuchayishi natijasida avj olib borayotgan ma'naviy xurujlar, yot g'oya va mafkuralar ta'sirida inson qalbi va ongini zabt etishga harakat tobora kuchayib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, missionerlik harakati globalashuv jarayonining eng murakkab muammolari qatorida o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy tahdid sifatida namoyon bo'lmoqda. Hozirda dunyo miqyosida ma'naviy va siyosiy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan missionerlik va prozelitizm harakatlari orqali ayrim davlatlar o'z "madaniyati va dinini" singdirishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'z navbatida, missionerlik va prozelitizm geosiyosiy kuchlar ko'magida xavfli qurol sifatida, o'zga din vakillari e'tiqodiga raxna solishga zamin yaratmoqda. Binobarin, ayrim mintaqalarda turli dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'zlarining geosiyosiy maqsadlarini ko'zlab, nizo va kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishda missionerlik va prozelitizm harakatlaridan bevosita foydalanishmoqda.

Mafkuraviy tahdidlar aholining ma'lum bir qatlami, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishdek ko'rinishlarda sodir bo'lmoqda. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashni o'rganish, murakkab va tahlikali hayotning shafqatsiz o'yinlari to'g'risida biryozlarga va soxta tasavvurlar shakllanmasligiga alohida e'tibor berish lozim. Buning uchun insonlarda sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom, o'z kuchiga va ertangi kunga ishonch tuyg'ularini yanada kamol toptirish zarur.

Globalashuv sharoitida g'oyaviy va mafkuraviy kurashning kuchayishi dunyo jamoatchiligi ongi, ruhiyati hamda ma'naviyatiga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Chunki har qanday millat yoki xalqning o'tmishi, tarixiy qadriyatlari, bugungi hayoti va kelajakdagi taqdirini belgilashda ma'naviyat asosiy omil vazifasini o'taydi.

Bir tilda so'zlashuvchi, umumiy tarix va yagona davlatga ega bo'lgan, ammo

turli dinlarga e'tiqod qiluvchi millatlarda diniy muammolar tufayli kelib chiqayotgan nizoli vaziyatlar fuqarolar urushining kelib chiqishiga zamin yaratadi. Turli darajadagi diniy adovat va to'qnashuvlar oqibatida kelib chiqayotgan urushlar natijasida, har qanday davlat o'z taraqqiyotidan ancha orqada qolib ketadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, diniy ta'limotlar jamiyat va davlat hayotida muhim o'rin tutib, insonni boshqarishda alohida ahamiyatga ega. Zero, aksariyat siyosiy kuchlar o'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshirishda bevosita dindan foydalanishmoqda. Ayniqsa, dunyo miqyosidagi siyosiy jarayonlarga asosiy ta'sir vositasi sifatida mafkuraviy suqilib kirish, ijtimoiy munosabatlarga ta'sir o'tkazish, bevosita missionerlik va prozelitizm harakatlari orqali amalga oshirilmoqda. Missionerlik va prozelitizm tarafdorlari aksariyat

ish vaqti", deya bejiz aytilmayapti. Bu hikmatning tag-zamirida farzandlar taqdiri, aholining g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish yuzasidan tadqiqotlar o'tkazish, internet tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish kabi zalvorli masalalar yotibdi. Endilikda, asosiy vazifa internetni yopish emas, uni tartibga solish, ezgu g'oyalar bilan to'ldirish hamda yoshlarga nima yaxshi-yu, nima yomonligini xolisona anglatishdan iboratdir. Shu o'rinda siyosiy arbob Mahatma Gandining: "Men uyimning eshik va derazalarini mahkam berkitib o'tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Shu barobarida eshik va derazalarimni kirayotgan havo dovol bo'lib, xonadonimni ag'dar-to'ntar qilib, o'zimni yiqitib tashlaydigan darajada ochib ham qo'ya olmayman" degan fikrlarini eslash o'rindir.

bejiz tarqalmagan. Xalqimizning kundalik turmushida ham aqlni charxlovchi, xotirani kuchaytiruvchi, ziyraklikni, mantiqni tarbiyalovchi o'yinlar, mushoiralar ko'p bo'lgan. Bolalarga topishmoqlar, tez aytishlar, mushoiralar, o'ylaganimni top singari mashq-o'yinlar bolalarning nutqini, xotirasini, aql-idrokini kuchaytirishga xizmat qilgan. Katta yoshdagilar ham vaqti-vaqti bilan xonadonlarda yig'ilishib, "Alpomish", "Go'ro'gli", "Rustamxon" singari dostonlarni zavq bilan o'qishgan yoki bir-biriga yoddan aytib berishgan.

Milliy mafkuraning eng muhim g'oyalaridan biri ijtimoiy hamjihatlikni shakllantirish ekanligini ko'rsatadi. Bu g'oya mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun asos bo'ladi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda xalqimizning azaldan rioya qilib kelayotgan mahalla qadriyatlarini muhim ahamiyat kasb etadi.



holatlarda turli niqoblar, jozibali shior va g'oyalar pardasi ostida faoliyat ko'rsatadi. O'z navbatida, ushbu holat milliy, diniy, irqiy nizolarni keltirib chiqarish oqibatida davlatlar aro barqarorlikni izdan chiqarish uchun zamin yaratadi.

Bugun ma'naviyat naqadar zarurligini, xalqimiz kechagi xalq emasligini, yangicha ishlashni, bugunimiz va ertangi kunimiz yanada yaxshi bo'lishi uchun hamma odamlar o'zgarishi muhimligini davrning o'zi taqozo etmoqda. Eskirgan usullar bilan yot g'oyalarga qarshi kurashishning samarasi sustligini hayotning o'zi ko'rsatib bo'ldi. Bugungi sharoitda targ'ibot-tashviqotning zamonaviy va innovatsion usullarini yaratish zarurati anglanmoqda. Dunyoda geosiyosiy o'zgarishlar va mafkuraviy kurashlar avj olib borayotgan bir vaqtda ma'naviy-ma'rifiy ishlar faqat targ'ibot-tashviqot bilangina chegaralanib qolmasdan, sohaga jiddiy ilmiy yondashuv zarurligini talab etmoqda. Bugun internet tarmog'i orqali bong urib chiqayotgan yoshlarimizning ko'zi-qulog'i va ongini zararli g'oyalardan asrashning yangicha, zamonaviy usullarini zudlik bilan yaratish kerak. "Bolaningbo'sh vaqti—dushmanning

Ota-bobolarimiz bekorga komil inson haqida orzu qilishmagan. Bizning kelajagimiz farzandlarimizning qanday tarbiya topishiga bog'liq. Ularga e'tiborsiz qarajak, kelajagimizni boy beramiz. Dunyodagi ba'zi kuchlar doimo otalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirishga, bolani ota-onaga qarshi gij-gijlashga harakat qilishadi va shu usul bilan aziz farzandlarimizni o'zlari tomonga ag'darib olishga urinishadi. Bunga nihoyatda hushyor bo'lishimiz, farzandlarni qo'ldan boy bermaslik uchun ta'lim va tarbiyaning uzluksizligiga, har bir farzandimizning ilmi va hunarli bo'lishiga e'tiborni kuchaytirishimiz lozim. Tarbiyada har bir odamda bo'ladigan boshqarish mexanizmini e'tiborga olishimiz, ularni ilhomlashtirish, ayniqsa xotirasini chiniqtirish, ruhiy va jismoniy tarbiyani uzluksiz olib borish kerak bo'ladi.

"Beshikdan to qabrgacha ilm izlang" degan hadis millatimizning asosiy shiorlaridan biri edi. Hadislarda "Bir kunlik ilm bilan shug'ullanish 70 yillik ibodatdan afzal", "Chin mochinga borsang ham ilm izla", "Ilmgga intilish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir" degan hikmatlar

Mahallada fuqarolik jamiyati kurtaklari mujassamdir.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy "Inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lishi, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi", deydi. Ana shu jarayonda insonda fazilatlarni kamol toptirish haqida ta'kidlab, quyidagi fikrlarni ilgari suradi, "Inson fazilatlar bilan kamolotga yetadi va kamolotga yetgan odam baxtli hisoblanadi". Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda asosiy maqsadimiz jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish ekan, birinchi navbatda, milliy g'oyani fuqarolar ongi va qalbiga chuqur singdirishga erishishimiz kerak. Aholida, ayniqsa, yosh avlodda sog'lom e'tiqodni shakllantirish, ular orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un ravishda targ'ib etish ham muhim ahamiyatga ega. Umuman, fuqarolarning bilimi va tafakkurini yanada oshirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish ishlarini izchil amalga oshirib boraversak, har qanday tahdidlar bizga xavf sololmaydi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.



# DUNYO TARIXIDAGI ENG NOODATIY PULLAR

Bilamizki, bu dunyo turli sir-sinoatlarga va hattoki ko'z ko'rib, quloq eshitmagan g'aroyib hodisalarga boy. Nashrimizning 8-sahifasi orqali siz aziz mushtariylarga ana shunday bir-biridan qiziqarli faktlar haqida ma'lumot berib borishda davom etamiz.

Ma'lumki, dunyoning barcha davlatlarida savdo-sotiq masalalari shu davlat tomonidan belgilangan pul birligi orqali amalga oshiriladi. Xo'sh, nima bo'пти shunga deysizmi? Xulosa chiqarishga shoshilmang. Bu galgi sahifamiz orqali sizga dunyo tarixidagi eng noyob pullar va bu pullar orqali amalga oshirilgan savdo-sotiq haqida qisqa faktlarni tayyorlaganmiz. O'ylaymizki bu sizni befarq qoldirmaydi.

Aytishlaricha, hindular Manhetten orolni gollandlarga bahosi 24 dollar bo'lgan bir dasta shisha munchoq evaziga sotgan ekan. Amerika maktablaridagi tarix darslarida shu haqda aytib beriladi. Lekin qanday qilib gollandlar hindularni aldagani haqida gapirilmaydi.



Gap shundaki, o'sha paytlarda hindular odam qo'li kattaligidagi chig'anoqlar – "vampum"larni pul sifatida ishlatgan. Ular rangli shisha marjonlar to'plami juda qimmat deb o'ylagan bo'lsa kerak. Shu tarzda ular orolni ko'chmanchilarga berishga rozi bo'lishgan.

## Choy briketlari:



g'ishtga o'xshatib presslab tayyorlangan choy briketlari ham pul edi. Qimmatini belgilab qo'yilgan bunday pullar Xitoy, Hindiston va Tibetning bir qismida qadrlangan. Boshqalar bu briketlar pul ekanligini bilishi uchun ularga tamg'a bosilgan. Aks holda, har qanday xitoylik choy bargini presslab, u orqali to'lov qilishi mumkin edi-da.

## Rai disklari:



mana bu pulni bir kishi ko'tara olmaydi, uni bir joydan boshqa joyga o'tkazish uchun butun bir tashuvchilar brigadasi kerak. O'rtasida teshiklar bo'lgan tosh disklar Mikroneziyada to'lov vositasi bo'lib xizmat qilgan. AQSH nazorati ostidagi zamonaviy davlat MFSH – Mikroneziya Federativ Shtatlari deb ataladi.

Mikroneziyaliklar vulqon kulidan yasagan bunday tangalarning og'irligi 500 kilogrammgacha yetgan. Shunga ko'ra, doira qanchalik og'ir bo'lsa, unga shunchalik ko'proq mol sotib olish mumkin edi. Pul har doim ham bir egasidan boshqasiga o'tmagan. Diskning qayerdaligini aytish kifoya va u o'sha joyda yillar davomida qolib ketishi mumkin edi.

## Kissi pullari:



bir dasta temir chiviq G'arbiy Afrika qabilalari orasida to'lov vositasi bo'lib xizmat qilgan. Bir chiviq kissi-tiyin deb atalgan. Misol uchun, har biri 20 ta chiviqdan iborat yuzta bog'lamga bitta sigir sotilgan.

## Tevau qush patlari:



Solomon orollari aholisi qush patlaridan pul qilgan. Buning uchun ular patlarni uzun to'plamlarga bog'lab qo'yib, to'plamlar g'altaklarga aylantirilgan. Xaridor va sotuvchi narxni kelishib olganda, xaridor yelkasidagi g'altak patlarining bir qismini kesib, sotuvchiga bergan.

## Tuz pul birligi:

tuz qadimgi Rim, Sahroi Kabir va butun Sharqiy Afrika-da pulning asosiy shakli edi. Odatda, odamlar bloklangan tuzni uning haqiqiy ekanligiga ishonch hosil qilish uchun yalab, keyin uni oldi-berdi uchun mayda bo'laklarga bo'lishardi.

Tuz yombilari Qadimgi Rusda pul sifatida tan olingan va Efiopiyada tuz evaziga kelin sotib olish mumkin edi.



Sahifani Masrur SANAYEV tayyorladi.



# Vaziyat

gazetasi

**Muassis:**  
O'zbekiston  
Respublikasi  
Favqulodda  
vaziyatlar  
vazirligi

*Bosh muharrir*  
**Azamat SUYUNOV**

*Gazeta tahririyat  
kompyuterxonasida  
sahifalandi.*

Gazeta har haftaning  
payshanba kuni chiqadi.  
Topshirish vaqti – 15.00  
Topshirildi – 15.00

*Navbatchi:*  
**A.QOBILOV**

Tahririyatga yuborilgan  
materiallar qaytarilmaydi  
va izoh berilmaydi.  
Mualliflar fikri  
tahririyat nuqtai nazaridan  
farqlanishi mumkin.

Gazetadan olingan materiallar  
manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va  
axborot agentligida 2007 yil  
3 yanvarda 0096-son raqam  
bilan ro'yxatga olingan  
**ISSN 2091-5292**

**Tahririyat manzili:**  
100084, Toshkent shahri,  
Yunusobod tumani,  
Sh.Rashidov ko'chasi, 17-A-uy.  
**Tel.:** (71) 212-69-56  
**Telegram:** (90) 016-87-67

**Indeks:**  
*yakka obunachilar va  
tashkilotlar uchun - 382*

Gazeta "Sharq NMAK"  
bosmaxonasida bosildi.  
Manzil: Toshkent shahri,  
Mirobod tumani  
Buyuk Turon ko'chasi 41-uy  
Buyurtma № G-1052  
Bichimi: A3, hajmi: 2,0 b.t.  
Adadi - 10000 nusxa